<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirini inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugaprovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
<i>Ro'ziqulova Zarina Yusupovna</i>	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rnini	974
<i>Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi</i>	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi</i>	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlarini	983
<i>Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi</i>	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
<i>G. X. Ravshanov, A. X. Norov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
<i>Abduraximova Shahnoza Alikulovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
<i>Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova</i>	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
<i>B. Y. Hamrayev</i>	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
<i>Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich</i>	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'rnini.....	1011
<i>Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
<i>Dostonbek Bobojonov G'ofurovich</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
<i>Umarova Mohichehra Ikromjon qizi</i>	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
<i>To'laganova Mohinur Abduhakim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
<i>Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva</i>	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
<i>Raximova Intizor Rustamovna</i>	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
<i>Sabirova Gullola G'ayratovna</i>	
Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI JARAYONIDA MANTIQUIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Kayumova Nargiza Mirziyatovna
Dotsent

Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi
O'zMPU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarda sabab–oqibat munosabatlarini anglash, solishtirish, umumlashtirish hamda xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalarni shakllantirishda tadqiqotchilik faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada maktabgacha yosh davrida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tarbiyachining yo'naltiruvchi roli hamda ta'lim jarayonida faol o'rganish muhitini tashkil etish masalalari yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi bolalar, tadqiqotchilik faoliyati, mantiqiy fikrlash, bilish faoliyati, muammoli vaziyat, pedagogik tajriba, izlanishga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article examines the development of logical thinking skills in senior preschool children through the organization of research-oriented activities in early childhood education settings. The primary objective of the study is to identify the pedagogical potential of research activities in fostering children's abilities to analyze, compare, establish cause–effect relationships, and draw reasoned conclusions. The article also outlines key pedagogical conditions for enhancing logical thinking at the preschool stage, emphasizing the guiding role of educators and the importance of creating an active and inquiry-based learning environment. The findings of the study provide a basis for developing methodological recommendations aimed at improving cognitive and intellectual development in early childhood education practice.

Key words: early childhood education, senior preschool children, research activity, logical thinking, cognitive development, problem-based learning, pedagogical experiment, inquiry-based learning.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития логического мышления у детей старшего дошкольного возраста в процессе организации исследовательской деятельности в условиях дошкольного образования. Цель исследования заключается в выявлении педагогических возможностей исследовательской деятельности для формирования у детей умений анализировать, сравнивать, устанавливать причинно–следственные связи и делать обоснованные выводы. В работе раскрываются педагогические условия развития логического мышления в дошкольном возрасте, обосновывается направляющая роль воспитателя, а также подчеркивается значимость создания активной познавательной среды. Результаты исследования могут быть использованы при разработке методических рекомендаций для практики дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста, исследовательская деятельность, логическое мышление, познавательная деятельность, проблемное обучение, педагогический эксперимент, исследовательский подход.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki mustaqil fikrlashi, atrof-muhitni anglashga bo'lgan faol munosabati hamda izlanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, katta yoshdagi maktabgacha bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki aynan ushbu yosh davrida bolalarda tafakkurning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi asosiy mantiqiy operatsiyalari faol shakllanadi.



Pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mantiqiy fikrlash bolalarda tayyor bilimlarni o'zlashtirish jarayonida emas, balki ularni mustaqil ravishda izlash, tekshirish va amaliy faoliyatda sinab ko'rish jarayonida samarali rivojlanadi. Shu jihatdan, maktabgacha ta'limda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish bolalarning bilish faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni anglash va ularni mantiqiy yo'l bilan hal etishga o'rgatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi ^[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tadqiqotchilik faoliyati murakkab ilmiy jarayon sifatida emas, balki kundalik hayot hodisalarini kuzatish, oddiy tajribalar o'tkazish, savollar berish va ularga javob izlash orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotchilikka asoslangan faoliyat bolalarda sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, o'z fikrini asoslash va izchil bayon etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu jarayonni bolaning intellektual rivojlanishida muhim bosqich sifatida baholab, uni maktab ta'limiga tayyorgarlikning ajralmas qismi deb hisoblaydilar ^[2].

Shu bilan birga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni o'z-o'zidan kechmaydi, balki tarbiyachining maqsadga yo'naltirilgan pedagogik rahbarligi, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhit hamda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladigan faoliyatni talab etadi. Tadqiqotlarda tarbiyachining yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va muammoli vaziyatlarni tashkil etuvchi roli mantiqiy fikrlashning samarali rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan ^[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur ilmiy maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish orqali ularning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ilmiy manbalarda ushbu jarayon bolalarning bilish faoliyati, tafakkur rivoji hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqlikda talqin etiladi. Xususan, L.S. Vygotskiy o'z tadqiqotlarida bolaning aqliy rivojlanishi ijtimoiy muhit va faoliyat jarayonida yuzaga kelishini ta'kidlab, bilimlar tayyor holda berilganda emas, balki faol izlanish orqali egallangandagina tafakkur rivojlanishini ilmiy asoslab bergan. ¹

Maktabgacha ta'lim pedagogikasida tadqiqotchilik faoliyati bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojiga tayanib tashkil etiladigan faoliyat turi sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu faoliyatni muammoli vaziyatlar, tajribalar, kuzatuvlar va savol-javoblar orqali bolaning tafakkurini faollashtiruvchi vosita sifatida baholaydilar.

M.G. Davletshin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi aqliy amallarni tizimli mashq qilish orqali rivojlanishi qayd etilgan. ²

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda maktabgacha yosh davrida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining metodik yondashuvi va pedagogik rahbarligi muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlanadi.

F.R. Qodirova va R.M. Qodirovlarning ilmiy ishlarida tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, faoliyatni o'yin bilan uyg'unlashtirish hamda mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirish samaradorlikni oshirishi asoslab berilgan. ³

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim amaliyotida tadqiqotchilik faoliyati orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi hamda amaliy-metodik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasi sohasidagi zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida kuzatuv metodi asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Kuzatuv orqali bolalarning muammoli vaziyatlarga munosabati, savollar berish faolligi, mantiqiy xulosa chiqarish jarayoni va fikr yuritish ketma-ketligi tahlil qilindi. Ushbu metod bolalarning tabiiy sharoitdagi bilish faoliyatini real holatda o'rganish imkonini berdi.

Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov metodi qo'llanilib, unda tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan maxsus topshiriqlar, oddiy tajribalar, kuzatuvli mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlar tizimli ravishda tashkil etildi. Tajriba

1 Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 320 b.

2 Davletshin M.G. Bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.

3 Qodirova F.R., Qodirov R.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 280 b.



davomida bolalarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlar dastlabki va yakuniy natijalar asosida solishtirildi. Ushbu metod tadqiqot samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, suhbat va faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodlaridan ham foydalanildi. Suhbatlar jara-yonida bolalarning fikrlash jarayoni, sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunish darajasi hamda mustaqil xulosalari aniqlashtirildi. Faoliyat mahsullarini tahlil qilish esa bolalarning mantiqiy fikrlashini amaliy faoliyatda namoyon bo'lishini baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar majmui maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini har tomonlama o'rganish va ilmiy asoslangan xulo-salar chiqarishga xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayo-nida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda sifat va qisman miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashgan holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida asosiy ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba–sinov, suhbat hamda bolalar faoliyati mahsullarini tahlil qilish metodlari orqali olindi. Kuzatuv metodi yordamida bolalarning muammoli vaziyatlarga munosabati, savol berish faolligi va mantiqiy xulosa chiqarish jarayoni tabiiy sharoitda qayd etildi. Pedagogik tajriba–sinov jarayonida tadqiqotchilik faoli-yatiga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etilib, dastlabki va yakuniy natijalar o'zaro taqqoslandi. Suhbat metodi bolalarning sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunish darajasini aniqlashga xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar tahlil jarayonida qiyosiy va tavsifiy usullar asosida umumlashtirilib, mantiqiy fikrlash ko'nikmalaridagi o'zga-rishlar ilmiy xulosalar bilan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish orqali mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Tajriba–sinov ishlari davomida bolalarning bilish faolligi, muammoli vaziyatlarga munosabati hamda mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatidagi o'zgarishlar izchil kuzatildi.

Boshlang'ich bosqichdagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat bolalarda savol berish faolligi mavjud bo'lsa-da, ularning javoblari ko'proq tasodifiy va izchil bo'lmagan xarakterga ega edi. Sabab–oqibat bog'lanish-larini tushuntirishda qiyinchiliklar kuzatilib, xulosalar ko'pincha tarbiyachining yetakchi savollari asosida shakl-lanardi. Bu holat bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatdi.

Tajriba jarayonida tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan mashg'ulotlar tizimli ravishda tashkil etildi. Jumladan, oddiy tajribalar, kuzatuvli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va savol–javob asosidagi izlanishlar orqali bolalar mustaqil fikr yuritishga yo'naltirildi. Ushbu faoliyat shakllari bolalarda tahlil qilish, solishtirish va taxmin ilgari surish kabi mantiqiy amallarni faollashtirdi.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchilik faoliyatida muntazam ishtirok etgan bolalarda mantiqiy fikrlashning asosiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, bolalar muammoli vaziyatni tushu-nish, savollarni mantiqiy ketma-ketlikda berish va o'z fikrlarini asoslab bayon etishga ko'nikma hosil qildilar. Avvalgi bosqichda tarbiyachining faol rahbarligini talab qilgan vazifalar keyingi bosqichda bolalar tomonidan nisbatan mustaqil bajarila boshladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan tarbiya-chining pedagogik yondashuviga bog'liq. Agar tarbiyachi bolaga tayyor javob bermay, uni fikrlashga undovchi savollar orqali yo'naltirsa, bolaning mantiqiy tafakkuri yanada faol rivojlanadi. Shu bilan birga, o'yin va tajribaga asoslangan faoliyat shakllari bolalarning qiziqishini oshirib, mantiqiy fikrlash jarayonini tabiiy tarzda rivojlanti-rishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida tadqiqotchilik faoliyati samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat bolalarda nafaqat aqliy operatsiyalarni, balki mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik va xulosa chiqarish kabi muhim intellektual sifatlarni ham shakllantiradi. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim amaliyotida tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan metodlarni kengroq joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivoj-lantirishda tadqiqotchilik faoliyati muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jara-yonida kuzatilgan o'zgarishlar shuni ko'rsatdiki, bolalarni izlanishga, savol berishga va mustaqil xulosa chiqa-

rishga yo'naltirilgan faoliyat shakllari ularning tafakkurini faollashtiradi hamda bilish jarayoniga ongli munosabatni shakllantiradi.

Muallifning shaxsiy ilmiy kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, mantiqiy fikrlash bolalarda tayyor bilimlarni eslab qolish orqali emas, balki ularni amaliy faoliyat davomida sinab ko'rish, xatolarni tahlil qilish va o'z fikrini asoslash jarayonida samarali rivojlanadi. Tadqiqotchilik faoliyati aynan ushbu jarayonlarni tabiiy tarzda tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, oddiy tajribalar va muammoli vaziyatlar orqali olib borilgan mashg'ulotlar bolalarda sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish, fikrni izchil bayon etish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, tarbiyachining pedagogik pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar tarbiyachi bolani passiv ijrochi sifatida emas, balki faol tadqiqotchi sifatida qabul qilsa, uning savollariga tayyor javob bermay, fikrlashga undovchi yo'naltiruvchi savollar bilan ishlasa, bolalarda mantiqiy fikrlash yanada chuqurroq rivojlanadi. Bu holat maktabgacha ta'lim amaliyotida tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Muallif fikricha, tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan yondashuv maktabgacha ta'limda nafaqat intellektual rivojlanishni, balki bolalarning mustaqilligi, o'z fikriga ishonchi va bilishga bo'lgan ijobiy munosabatini ham shakllantiradi. Ushbu sifatlar esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish va ijtimoiy moslashuv uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda tadqiqotchilik faoliyatini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etish zarur. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib, mazkur yo'nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каюмова Н. М., Якубова З. З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. // In Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 92–95).
2. Kayumova N. M. (2013). Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma.
3. Каюмова Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. // In International Scientific And Practical Conference "The Time Of Scientific Progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102–107).
4. Qodirova F. R., Toshpulatova S. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. (2018). Preschool pedagogy. Textbook. Tashkent – 2018.
5. Kayumova N. M., Ro'ziyeva M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni. "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 102–104.
6. Каюмова Н. М., Базарбаева З. О. (2023, October). Речь детей как психолого-педагогическая проблема. //In International Scientific Conference "Innovative Trends In Science, Practice And Education" (Vol. 2, No. 8, pp. 68–73).
7. Kayumova N. M. (2023). Educating children in the spirit of national values in preschool educational organizations and in the family. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(6), 33–38.
8. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. (2023, January). "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish. //In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 609–612).
9. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. (2023, January). Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahorati. //In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 605–608).
10. Kayumova N. M., Murodxo'jaeva Z. M. (2023, January). Tarbiyachining faoliyatlarini tashkil etish jarayonidagi ijodkorligi. //In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 601–604).
11. Хакимова Н. Ж., Каюмова Н. Н., Абидова Ф. Н., Улугмурадов Н. Х. (2021). Тени в аксонометрии и в ортогональных проекциях деталей. Интернаука, (15–2), 52–56.
12. Каюмова Н. М., Якубова З. З. (2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности. In Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 92–95).
13. Kayumova N. M. (2019). Peculiarities of teaching English in ESP classes. Modern Scientific Research, 128.
14. Каюмова Н. М., Пирмухамедова М. Э. (2019). Руководитель дошкольной образовательной организации и его функциональные обязанности. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 42.
15. Каюмова Н. М. (2024). Андрагогическая модель взаимодействия педагогов ДОО с семьями и местным сообществом. World of Scientific News in Science, 2(2), 27–36.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.